

O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI

Xodjayorova Bahora Akramovna

O‘qituvchi (PhD), O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Mamatkulova Mehrangiz Djamshedova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Abdurahmonova Irodaxon Sheraliyevna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchining innovatsion faoliyati, uning ahamiyati, mazmun-mohiyati va zamonaviy ta’lim jarayonidagi roli yoritilgan. Shuningdek, innovatsion faoliyatning o‘quv jarayoniga ta’siri, o‘qituvchilarning malaka oshirish ehtiyoji va kreativ yondashuvlarning zarurligi tahlil qilingan. Maqolada o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishi va ta’limga qo‘llashi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta’lim, pedagog, metodika, kreativlik, zamonaviy texnologiyalar, o‘qituvchi, interfaol usullar.

Аннотация. В статье рассматривается инновационная деятельность педагогов, ее значение, содержание и роль в современном образовательном процессе. Также были проанализированы влияние инновационной деятельности на образовательный процесс, необходимость повышения квалификации учителей и потребность в креативных подходах. В статье рассматривается работа учителя над собой, овладение информационно-коммуникационными технологиями и их применение в образовании.

Ключевые слова: инновация, образование, педагог, методика, творчество, современные технологии, учитель, интерактивные методы.

Annotation. This article discusses the innovative activity of a teacher, its importance, content and role in the modern educational process. It also analyzes the impact of innovative activity on the educational process, the need for teachers to improve their skills and the need for creative approaches. The article discusses the teacher's work on himself, the mastery of information and communication technologies and their application in education.

Key words: innovation, education, pedagogue, methodology, creativity, modern

technologies, teacher, interactive methods.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir sohada, xususan, ta’lim tizimida yangilanish, takomillashuv jarayonlari jadallashmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning markazida o‘qituvchi turadi. Zamonaviy o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantiruvchi, ularda zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi shaxsdir.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 17-moddasida pedagog xodimlarning huquqlari va majburiyatlari va innovatsion faoliyatni olib borish, yangicha metodlardan foydalanish, pedagogik texnologiyalarni joriy qilishishi, “2021–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchining innovatsion faoliyatini zaruriy va samarali amalga oshirish kerakligini ta’kidlab o‘tish mumkin. Bunda o‘qituvchining innovatsion faoliyati muhim o‘rin egallaydi.

Innovatsion faoliyat tushunchasi va uning pedagogik jarayondagi o‘rnida innovatsiya so‘zini yoritimiz. Innovatsiya so‘zi lotincha “innovatio” - “yangilanish” degan ma’noni bildiradi. Pedagogik innovatsiyalar esa yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va ularni samarali qo‘llashdan iborat. O‘qituvchining innovatsion faoliyati deganda esa o‘z pedagogik faoliyatida yangicha metodlar, vositalar, texnologiyalarni qo‘llash, mavjud tajribalarni takomillashtirish tushuniladi [2.,2021]. Innovatsion yondashuv orqali o‘qituvchi o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Buning uchun o‘qituvchi interfaol metodlar, elektron resurslar, virtual laboratoriyalar, test sinovlari, blokli o‘qitish kabi usullarni o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. O‘qituvchining innovatsion salohiyati va uni rivojlantirish yo‘llarida quyidagi komponentlardan iborat:

- Kreativ fikrlash qobiliyati
- Texnologik savodxonlik
- Pedagogik refleksiya
- Doimiy o‘rganishga tayyorlik

Bu sifatlar o‘qituvchining yangilikka ochiqligini, o‘z ustida ishlashga intilishini ifodalaydi. Bunday salohiyatni shakllantirish uchun malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar, o‘zaro tajriba almashuv dasturlari zarur. Bugungi kunda quyidagi zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

- Blended learning (aralash o‘qitish)

- Flipped classroom (teskari sinf)
- STEAM yondashuvi
- Muammoli ta’lim
- Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)

Bu metodlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘qituvchilar innovatsion faoliyatga o‘tishda quyidagi muammolarga duch kelishadi:

- Yetarli texnik baza va sharoitlarning yo‘qligi
- Axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimlarning sustligi
- An’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechishdagi psixologik to‘siqlar
- O‘quvchilarning faolligini oshirishda motivatsiyaning sustligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, AKT bo‘yicha malaka oshirish kurslarini ko‘paytirish va ijobiy tajribalarni targ‘ib qilish lozim.

Xulosa. Innovatsion faoliyat bugungi o‘qituvchining zaruriy kasbiy sifati hisoblanadi. Ta’lim tizimining yangilanishi, raqamlashtirilishi sharoitida o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi lozim. Innovatsion faoliyat o‘qituvchini pedagogik jarayonning markaziy figurasi sifatida mustahkamlaydi va ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” (yangi tahrir), 2020-yil 23-sentabr, №3PY–637. www.lex.uz
2. Xodjaqulov A. (2021). Innovatsion pedagogika asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Raxmonova D. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Samarqand: SamDU.
4. Qodirova M. (2019). O‘qituvchi faoliyatida kreativ yondashuv. Andijon: AndMI.
5. UNESCO (2023). Transforming education through innovation. www.unesco.org
6. Azizxo‘jaeva N.N. (2018). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.